

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
tizimida bank hisobvarag‘i shartnomasi va mijoz
hisobvaraqa qiga xizmat ko‘rsatishga doir boshqa
shartnomalarni tuzish bo‘yicha Tavsiyalarga
— Illova

**Bank kartalari vositasida korxona/tashkilot ishchi-xodimlariga ish haqi tarqatish bo‘yicha
OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

Ushbu Ommaviy oferta shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – Oferta) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq, korxona/tashkilotning ishchi-xodimlariga ish haqi tarqatish bo‘yicha yuborilgan rasmiy ommaviy taklif bo‘lib hisoblanadi.

Ommaviy oferta shartnomasi Mijoz tomonidan bank hisobvarag‘i ochish yuzasidan murojaat qilingan arizani taqdim etish bilan yoxud ushbu shartnomaga ilova qilingan arizani, belgilangan tartibda to‘liq to‘ldirilgan vaqtidan boshlab tuzilgan (akseptlangan) hisoblanadi hamda mijoz mazkur ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini va Bank Tariflariga asosan to‘lovlarini to‘lashni istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilganligini anglatadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Bank ish kuni - O‘zbekiston Respublikasidagi banklari tomonidan operatsiyalar bajariladigan ochiq kun;

Bank kartasi blokirovkasi - Bank kartasining funksionalligini to‘xtatib turish yoki butunlay to‘xtatib qo‘yish uchun Bank tomonidan ko‘rilgan chora;

Bank kartasi saqlovchisi - emitent yoki bank kartalarini tarqatuvchi bank bilan mijoz o‘rtasidagi shartnomaga asosan bank kartasidan foydalanuvchi mijoz yoki mijoz tomonidan vakolat berilgan shaxs;

Ro‘yxatning hujjatlashtirilgan shakli - O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq elektron shakldagi ro‘yxatning korxona rahbari, bosh hisobchisi (yoki imzolash huquqi berilgan javobgar shaxs) tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan elektron vedomost

Ariza - Tashkilot xodimini bank kartasini ochish haqidagi murojaati;

Jismoniy shaxs tomonidan Banklararo milliy bank kartalaridan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ommaviy oferta shartnomasi - Bank kartalaridan foydalanish to‘g‘risida Bank va Tashkilot xodimlari o‘rtasida tuzilgan ommaviy oferta shartnomasi;

Karta hisobvarag‘i - Bank kartasi orqali pul mablag‘larini tasarruf etish mumkin bo‘lgan bank hisobvarag‘i;

Bank kartasi - Uni saqlovchisiga to‘lov infratuzilmari orqali to‘lovlarini amalga oshirish yoki naqd pul mablag‘larini olish yoxud valyuta ayriboshlashni amalga oshirish va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi to‘lov vositasidir;

Ro‘yxat - Elektron va hujjatlashtirilgan shakldagi korxona va tashkilotning ishchi xodimlarining ro‘yxati;

Bank tarifi - “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan, bank kartalar orqali bank operatsiyalari amalga oshirilganda, bank kartalarini muomalaga chiqarishda va ularni yangisiga almashtirib berishda Tashkilotdan undiriladigan komission to‘lovlar;

Elektron shakldagi ro‘yxat - Korxona/tashkilotning, bank tomonidan joriy qilingan “Korporativ Internet banking” yoki Budjet tashkilotlarining Moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan moliyalashtirilayotgan to‘lovlar bo‘yicha ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lov qaydnomalarini G‘aznachilik boshqarmasining “UzASBO” dasturiy majmuasi orqali bank kartasi hisob raqamlariga kirim qilish uchun asos bo‘lgan elektron vedomost;

Emitent - Bank kartasini emissiyasini amalga oshiruvchi, bank kartasining saqllovchilari va ekvayerlar tomonidan bank kartalaridan foydalanilgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqlari bo'yicha o'z nomidan majburiyatni zimmasiga olgan bank;

Bank kartalari emissiyasi - Bank kartalarini muomalaga chiqarish va foydalanishga taqdim etish bo'yicha faoliyat;

Ekvayring - Bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat va boshqalar) sotuvchilari bilan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek, bank kartasi saqlovchisiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul berish;

Ekvayer - Evayringni amalga oshiruvchi rezident bank;

Savdo va xizmat ko'rsatish subyekti - Ekvayer bilan tuzilgan shartnomaga asosan bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat)larni sotuvchi yuridik shaxs va (yoki) yuridik shaxs maqomiga ega bo'lman tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs;

Terminal - Bank kartasining saqlovchisiga to'lov operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi va bajarilgan operatsiyalar bo'yicha (qog'oz yoki elektron shakldagi) sliplarni shakllantiruvchi moslama yoki dasturiy ta'minot

Avtorizatsiya - To'lov operatori tomonidan ko'zda tutilgan qoidalarga asosan telefon, elektron yoki aloqaning boshqa usullari yordamida bank kartasi bilan operatsiyalarini amalga oshirish uchun bank kartasi emitentining ruxsatini olish jarayoni;

PIN-kod - Bank kartasi saqlovchisining shaxsiy identifikatsiya raqami bo'lib, u karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish huquqini hamda mablag'larni boshqarishga bank kartasining saqlovchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi;

To'lov operatsiyasi Bank kartasi orqali tovarlar (ish, xizmatlar) uchun amalga oshirilgan to'lov; - **Slip** Bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarini tasdiqlovchi, operatsiyaning miqdori, turi, amalga oshirilgan sanasi to'g'risidagi ma'lumotlarni va ushbu hujjatni shakllantirishda foydalanilgan bank kartasi, terminal yoki bankomatni to'g'ri aniqlay bilish imkoniyatini beruvchi axborotni o'zida mujassamlashtirgan qog'oz yoki elektron shakldagi hujjat (chek);

To'lov tizimi ishtirokchilari - To'lov tizimi operatori bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi va to'lov tizimida ishtirok etish to'g'risida shartnomada tuzgan banklar to'lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank Korxona/tashkilotning ishchi-xodimlariga ish haqi loyihasidagi bank kartasi hisobvaraqlarini ochish, bank kartalarini tarqatish hamda Bankda o'rnatilgan tariflar va mazkur shartnoma shartlari asosida bank kartalariga xizmat ko'rsatish majburiyatini, korxona/tashkilot ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun ushbu shartnomada belgilangan miqdorda haq to'lash va o'z xodimlari bank kartalariga kirim qilingan mablag'larni boshqarish majburiyatlarini oladi.

2. HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

2.1. Bank karta hisobvarag'larini naqd pulsiz shaklda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq to'ldiriladi;

2.2. Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun, xizmat ko'rsatilgan vaqtida amalda bo'lgan Bank Tariflariga asosan haq olinadi.

2.3. Bank tomonidan mijozga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq mijozning hisobvarag'idan uning roziligesiz va topshirig'isiz (akseptsiz ravishda) hisobdan chiqariladi.

2.4. Tariflarga o‘zgartirishlar va/yoki qo‘srimchalar kiritilgan taqdirda, Bank bu haqida mijozni ushbu shartnomaga qo‘srimcha kelishuv tuzmasdan, ushbu o‘zgartirish va/yoki qo‘srimchalar kiritilgan kundan 10 (o‘n) kalendar kundan kechiktirmay quyidagi usullardan biri bilan xabardor qiladi:

a) mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi bankning alohida bo‘linmalarida axborot stendlarida e’lon qilish orqali;

b) bankning veb-sahifasida e’lon qilish orqali: www.sqb.uz;

v) boshqa yo‘llar bilan (bankning xohishiga ko‘ra).

2.5. Agar mijoz tariflarga kiritilgan o‘zgartirish yoki qo‘srimchalarga rozi bo‘lmasa, mijoz bunday o‘zgartirish yoki qo‘srimchalar kuchga kirgunga qadar shartnomani ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda bekor qilishga haqlidir.

3. KORXONA/TASHKILOTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1.Korxona/tashkilotning huquqi:

3.1.1. Soliq va unga tenglashtirilgan boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha barcha hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshirish;

3.1.2. Korxona/tashkilotning ishchi-xodimlari tomonidan yo‘qotilgan, o‘g‘irlangan, shikastlangan, amal qilish muddati tugagan yoki qo‘srimcha bank kartalarini muomalaga chiqarish bilan bog‘liq amaliyotlar uchun bank xizmatini to‘lab berish.

3.2.Korxona/tashkilotning majburiyati:

3.2.1. Bankdan olingen bank kartalarini mas‘ul xodimga va/yoki ishchi xodimlarga tarqatish va ushbu bank kartasi hisobvarag‘lariga pul mablag‘larini kirim qilish maqsadida Bankka pul mablag‘larini ko‘chirish;

3.2.2. Ishchi xodimlarining bank kartalari raqamlarini ro‘yxatdan o‘tkazish;

3.2.3. Bankdan olinib, egalariga yetkazib berilmagan bank kartalari butligini ta‘minlash;

3.2.4. Bankdan olinib, egalariga berilmagan bank kartalari o‘g‘irlangan yoki yo‘qotilgan hollarda, kartalarni blokirovka (Stop-list)ga qo‘yish haqida Bankka yozma murojaat qilish;

3.2.5. Korxona/tashkilot tomonidan ishchi-xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar bo‘yicha to‘lov qaydnomalarini bankka quyidagi tartibda elektron vedomost (reestr) taqdim etish;

a) Korxona/tashkilot tomonidan “UzASBO” va/yoki “Korporativ Internet banking” orqali ishchi-xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini kirim qilishda elektron vedomosdagi (reestr) mas‘ul xodim va ishchi-xodimlarning Familiya, Ismi, Shariflarini ularning emissiya qilingan plastik kartochkadagi Familiya, Ismi, Shariflariga va plastik kartochka raqamlarini bir xillagini ta‘minlash;

b) “UzASBO” va/yoki Bankning “Korporativ Internet banking” dasturiy majmuvalari orqali yuboriladigan qaydnomalardagi ma‘lumotlarning to‘g‘riligini hamda asl qog‘oz bosmasini o‘zida saqlanishini ta‘minlash;

3.2.6. Bank tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun bank Tariflarida belgilangan miqdorda komissiya to‘lash;

3.2.7. Bank tomonidan Korxona/tashkilot ishchi-xodimlarining bank karta hisobvarag‘lariga mablag‘lar kirim qilinmagan bo‘lsa, taqdim qilingan elektron shakldagi ro‘yxatni Bankdan rasmiy so‘rovnoma asosida qaytarib olish;

3.2.8. Bank kartalarining qoldiq mablag‘laridan oshgan miqdorda bajarilgan tranzaksiyalar yuzaga kelganda, oshgan miqdorini 30 kun ichida so‘ndirish.

4. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1.Bankning huquqlari:

4.1.1. Korxona/tashkilot tomonidan Bank komissiyasi to‘lanmagan yoki uni to‘lash uchun to‘lov topshiriqnomasi taqdim etilmagan holatda Bank, Korxona/tashkilot ishchi-xodimlarining bank kartasiga pul mablag‘larini o‘tkazib berishni rad qilishi mumkin.

4.1.2. Korxona/tashkilot tomonidan taqdim etilgan elektron vedomosdagi (reestr) ma’sul xodim yoki ishchi-xodimlarning Familiya, Ismi, Sharifi va plastik kartochka raqamlari bank bazasidagi ma‘lumotlarga mos kelmagan taqdirda, ishchi-xodimlarining bank kartasiga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini avtomatik ravishda kirim qilinishini rad etish;

4.2.3. Bank kartasi hisobvarag'lariga "UzASBO" va/yoki "Korporativ Internet banking" tizimi orqali mablag'lar kirim qilganidan keyin, korxona/tashkilot tomonidan to'lov qaydnomalarni elektron fayl ko'rinishda mablag'larni kirim qilinishini to'xtatish haqidagi so'rovnomasini rad etish;

4.2.Bankning majburiyatları:

4.2.1. Bank, korxona/tashkilot so'rovnomasiga yoki ishchi xodimlarining arizasiga asosan bank kartalarini emissiya qilish va mazkur shartnoma shartlariga muvofik xizmat ko'rsatish;

4.2.2. Korxona/tashkilot tomonidan ariza kelib tushgan kundan hamda Bank komissiya to'lovlari to'langani boshlab 5 bank ish kuni davomida kartochka egalariga yoki ularning ishonchnoma asosidagi ishonchli vakillariga bank kartalarini berish;

4.2.3. Bankka kelib tushgan to'lovlardan birgalikda tegishli ravishda rasmiylashtirilgan to'lov topshiriqnomada nusxasi hamda elektron shakldagi ro'yxat asosida bank kartasi hisobvarag'lariga pul mablag'larni kirim qilish.

4.2.4. Bank tomonidan korxona/tashkilotdan kelib tushgan naqd pulsiz shakldagi to'lovlarni, elektron shakldagi ro'yxatga muvofik kirim qilib berish.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Bankning javobgarligi:

- O'zbekiston Respublikasining Bank siri to'g'risidagi Qonun hujjatlariga to'liq rioya qilinmasligi natijasida korxona/tashkilot ko'rgan zararni qoplash;

- Bankka kelib tushgan to'lovlardan birgalikda o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov topshiriqnomada nusxasi hamda elektron faylga ko'ra kirim qilinishi lozim bo'lgan pul mablag'lari kechiktirilganda, har bir kechiktirilgan kun uchun kirim qilinishi lozim bo'lgan mablag'ning 0,01% miqdorida penya to'lash, bunda mablag'ning 10% dan oshmagan miqdorda penya to'lash.

5.2. Bank quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

5.2.1. Korxona/tashkilot tomonidan bank kartasi yo'qolganligi/o'g'irlanganligi to'g'risida Bankni o'z vaqtida kartochkani blokirovkaga (Stop-listga) qo'yish haqida xabardor qilinmaganligi natijasida yuzaga kelgan holatlarda;

5.2.2. Pul mablag'larini bank kartalariga quyidagi holatlarda kechiktirib kirim qilinganda:

a) tashkilotning aybi bilan o'rnatilgan tartibda bajariladigan bank operatsiyalarini bekor qilinishida;
b) korxona/tashkilot tomonidan elektron shakldagi ro'yxat hamda to'lov topshiriqnomasidan nusxa Bankka o'z vaqtida taqdim qilinmaganda;

v) korxona/tashkilot tomonidan Bank hizmatlari uchun hisob kitob qilishda xatoliklarga yo'il qo'yilganda yoki to'lovlarni noto'g'ri amalga oshirilganda.

g) "UzASBO" va/yoki Bankning "Korporativ Internet banking" dasturiy majmuvalari orqali yuboriladigan qaydnomalardagi ma'lumotlarning to'g'riliqiga/ qog'oz bosmasi bilan muvofiqligiga;

d) korxona/tashkilot tomonidan bank kartasi raqamlari va saqlovchilarining familiyasi, ismi va sharifi noto'g'ri ko'rsatilganda;

5.3. Korxona/tashkilotning javobgarligi:

- korxona/tashkilot tomonidan yo'qotilgan, o'g'irlangan bank kartalari bo'yicha o'z vaqtida Bankka blokirovkaga (Stop-listga) qo'yish haqida xabar berilmaganligi natijasida Bankka zarar keltirilgan hollarni ushbu zararni to'liq qoplab berilishiga;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni kirim qilish uchun taqdim etilgan elektron vedomostlarning to'g'riliqiga;

- korxona/tashkilot tomonidan ishonchli vakillariga berilgan ishonchnomalarga va reestr orqali bankdan qabul qilingan plastik kartochkalarni o'z egalariga yetkazib berilishiga.

- korxona/tashkilotning aybi bilan yoki kartochka yo'qotib qo'yilganligi sababli blokirovkaga (Stop-List) qo'yish natijasida bank tomonidan qilingan xarajatlarni hamda bank tarifiga asosan xizmat komissiyasi bo'lgan pul mablag'lari to'lovi kechiktirilganda, har bir kechiktirilgan kun uchun kirim qilinishi lozim bo'lgan mablag'ning 0,01% miqdorida penya to'lash, bunda mablag'ning 10% dan oshmagan miqdorda penya to'lash.

5.4. Tomonlar yengib bo'lmaydigan kuch ta'sirida ya'ni, yong'in, suv toshqini, zilzila, elektr tarmog'ining uzilishi/to'xtatilishi va taraflar nazaratidan tashqari to'siqlar vujudga kelishi natijasida o'z

majburiyatlarini bajara olmaganlarida yoki lozim darajada bajara olmaganlarida javobgarlikdan ozod etiladilar.

5.5. Mazkur shartnomani ijro qilish maqsadida taraflar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi, hamda u taraflarning oldindan yozma ravishdagi rozilisiz oshkor qilinmaydi. Bunday ma'lumotlarni oshkor qilinganda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikiga muvofiq javobgar hisoblanadi.

6. Korrupsiyaga qarshi shartlar

6.1. Taraflar ushbu shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsiyon xarakatlarni to'liq ta'qqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

6.2. Taraflar ushbu shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zлari, na ijroiya organi, na ularning masabdar shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdar shaxslari) korrupsiyon to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsiyon to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

6.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqllovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart. Yozma xabarnomalar "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens ishonch liniyasi" kanallari (**tel:0-800-120-8888**, **veb sayt** www.sqb.uz, **Telegram messenger SQB AntiKor (@sqbantikor_bot)**) orqali amalga oshiriladi.

6.4. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

6.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

7.Sanksiyalar bilan bog'liq xatarlarni boshqarish bo'yicha shartlar

7.1 Ushbu Shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar ularning har biri o'z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblarga rioya qilishini va ularni qo'llab-quvvatlashini tan oladi va tasdiqlaydi.

7.2. Mijozning hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larni kiritish yoki mijoz topshirig'iga asosan hisobvarag'idan o'tkazishda Bank tomonidan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar to'g'risidagi xalqaro qonun hujjalariiga rioya etilishiga qaratilgan tegishli choralar ko'rish (tekshirish va o'rganish) talab etilsa, Bank mazkur amaliyotni zarur bo'lgan davrga to'xtatib qo'yishga haqli.

7.3. Bank - mijoz va uning kontragenti bilan tuzilgan bitim bo'yicha har qanday ma'lumot yoki hujjalarni (*kontragent to'g'risidagi ma'lumotlar, uning to'liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro'yxati, uning aksiyadorlari/muassisalari tarkibi, uning ijro organi, mansabdar shaxslari, xodimlari, yoki to'g'risida, jo'natish hujjalari, mahsulotning spesifikatsiyasi, tashuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa zarur ma'lumotlar*) ushbu bitimning iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilikka muvofiqligini tekshirishga haqli;

7.4. Eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag'larni mijoz hisobvarag'iga kirish qilinishi, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag'larini chiqim qilishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko'rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassisalari, uning ijro organi, ularning mansabdar shaxslari yoki xodimlariga, eksport/import qilinayotgan tovarlar/xizmatlarga nisbatan sanksiyalar mavjudligi aniqlanganda, Bank ushbu operatsiyani amalga oshirishni bir tomonlama rad etishga haqli.

7.5 Agar mijoz tomonidan taqdim etilgan tashqi savdo shartnomalarida rejallashtirilgan amaliyotlarning sanksiyaviy xatari Bank tomonidan yuqori deb topilsa, Bank ushbu amaliyotni amalga

oshirayotgan mijozdan xalqaro e'tirof etilgan va reytingga ega bo'lgan yuridik kompaniyadan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilik talablariga muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosa talab qilishga haqli. Ushbu huquqiy xulosa Bank uchun amaliyotni bajarish uchun majburiy hisoblanmaydi. Bank mazkur amaliyotni o'tkazishda mustaqil hisoblanadi.

Mijoz tomonidan yuridik xulosani olishda qilingan harajatlar Bank tomonidan qoplanmaydi.

7.6 Mijoz faoliyati sanksiya bo'yicha xalqaro qonunchilikka nomuvofiq bo'lgan taqdirda yoki Bank tomonidan mijozning tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish rad etilgan hollarda, Bank 5 (besh) ish kuni ichida Mijozni qoidalar buzilganligini tasdiqlovchi faktlarni/materiallarni ilova qilgan holda yozma ravishdagi xabarnomani quyidagi pochta manziliga yuboradi:

Bank: _____

Mijoz: _____

7.7. Mijoz ushbu shartlarning 1.6-bandiga asosan yozma xabarnomada qayd etilgan qoidalarni buzilganlik faktlarini/materiallarini rad etuvchi asoslari mavjud bo'lsa, bu haqida Bankni xabarnoma olingan kunidan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida ularni Bankka taqdim etishga haqli.

7.8. Mijoz o'z faoliyatini amalga oshirishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko'rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdar shaxslari yoki xodimlari sanksiyalar ro'yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

7.9. Mijoz eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag'lar bo'yicha tovar va xizmatlarga, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag'larini jo'natishda tovar va xizmatlar sanksiyaga tushgan tovarlar ro'yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Shartnomalarini bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan nizo va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.2. Tomonlar o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etilmaganda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal etiladi.

8.3. Tomonlar nizoni hal qilishda o'zida saqlovchi qurilmalardagi ma'lumotlarni dalil sifatida tan olishga kelishadilar.

8.4. Yozma murojaatlar, taraflarning biri imzo qo'yib qabul qilganligi yoki manziliga pochta orqali yuborilganligi to'g'risida pochta kvitansiyasi mavjud bo'lganda, taraflar tomonidan qabul qilib olingan deb hisoblanadi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI BEKOR QILISH VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI

9.1. Mazkur shartnomalarini belgilangan tartibda akseptlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va bekor qilinmaguniga qadar amal qiladi.

9.2. Mazkur shartnomalarini Korxonalar/tashkilotning tashabbusi bilan bekor qilinganda to'langan bank komissiyasi qaytarilmaydi.

9.3. Mazkur shartnomalarini mijoz tomonidan yozma ravishda murojaat qilgan har qanday vaqtida, shuningdek hisobvarag'i boshqa bankka o'tkazilganida yohud mijoz faoliyati belgilangan tartibda tugatilgan taqdirda bekor qilingan hisoblanadi.

9.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan, u bilan bog'liq barcha munosabatlardan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

*20__ yil “__” __ dagi №
bank kartalari vositasida korxona/tashkilot
ishchi-xodimlariga ish haqi tarqatish bo‘yicha
ommaviy oferta shartnomasiga
1- ilova*

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
BXO/BXM
boshqaruvchisiga**

ARIZA

Sizdan, quyidagi bank xizmatlaridan foydalanishimda amaliy yordam berishingizni so‘rayman:
Ish xaqi loyixasi :

<input type="checkbox"/>	Humo	Mas’ul shaxs: F.I.Sh.	(rahbarning imzosi)
<input type="checkbox"/>	Uzcard		
<input type="checkbox"/>	Uzcard korporativ karta	Mas’ul shaxs: F.I.Sh.	(rahbarning imzosi)
<input type="checkbox"/>	Humo korporativ karta	Mas’ul shaxs: F.I.Sh.	(rahbarning imzosi)
<input type="checkbox"/>	VISA Business halqaro plastik karta:		
<input type="checkbox"/>	milliy valyutada		
<input type="checkbox"/>	AQSh Dollarda	Mas’ul shaxs: F.I.Sh.	(rahbarning imzosi)
<input type="checkbox"/>	To‘lov terminali:		
<input type="checkbox"/>	Uzcard		
<input type="checkbox"/>	Humo		
<input type="checkbox"/>	Visa	Mas’ul shaxs: F.I.Sh.	(rahbarning imzosi)
<input type="checkbox"/>	Virtual terminal (E-POS):		
<input type="checkbox"/>	Uzcard		
<input type="checkbox"/>	Humo		
<input type="checkbox"/>	Visa		
<input type="checkbox"/>	QR to‘lovlar tizimida	Mas’ul shaxs: F.I.Sh.	(rahbarning imzosi)

Mazkur arizani to‘ldirish jarayonida, mijozlarning bank hisobvarag‘lariga masofaviy xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha bankning rasmiy saytida (www.sqb.uz) joylashtirilgan ommaviy oferta shartnomasi bilan tanishdim hamda ushbu ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini hamda to‘lovni amalga oshirayotgan kundagi Bank Tariflarida belgilangan miqdorda to‘lovlni to‘lashni istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilaman.

20__ y. __ " __

(rahbarning imzosi)

M.O'. (muhr mayjud bo 'lganda)

**20 yil “ ” dagi №
bank kartalari vositasida korxona/tashkilot ishchi-
xodimlariga ish haqi tarqatish bo‘yicha
ommaviy oferta shartnomasiga
2- ilova**

-sonli

**Bank kartasini taqdim etish bo‘yicha
qabul qilish va topshirish dalolatnomasi**

_____ sh.

“ ” 20 ____ y.

Biz quyida imzo chekuvchilar, _____ BXO/BXM
boshqaruvchisi _____, bosh buxgalteri _____, Plastik kartochkalar
bo‘limi/sektori (FIO) _____, (FIO)
boshlig‘i _____, hamda “ _____”
tashkilotining bank (FIO) (tashkilot/korxona nomi)

kartalarini tashkilotda joriy etish uchun ishonchli bo‘lgan vakil _____
bo‘lim

(bo‘lim nomi)
mutaxassis _____:
(FIO)

filiali tomonidan

“ _____” (filial nomi) (tashkilot/korxona nomi)
tashkiloti/korxonasi bilan 20 yil “ ” UZKART to‘lov bank kartasi vositasida
KORXONA/TAShKILOT ishchi-xodimlariga ish haqi tarqatish to‘g‘risida” imzolangan ____ - sonli
shartnomaga hamda tashkilotning beragan ro‘yxatiga ko‘ra, _____
(_____) dona UZKART va
(so‘z bilan)

tashkilotning ishonchli vakiliga beraganligi va tashkilotning ishonchli vakiliga, BXO/BXM tomonidan
tashkilot xodimlari uchun emissiya qilingan _____ (_____) dona UZKART

(so‘z bilan)
bank kartalarini to‘liq holda qabul qilib olganligini tasdiqlaymiz.

Tashkilotga emissiya qilib berilgan bank kartalari ro‘yxati ushbu dalolatnomaning ajralmas qismi
hisoblanadi va unga ilova qilinadi.

BXO/BXM rahbari

_____ (FIO)

Bosh buxgalter

_____ (FIO)

Plastik kartochkalar bo‘limi boshlig‘i

_____ (FIO)

«_(tashkilot nomi)___» tashkilotining
bo‘limi xodimi

_____ (FIO)

*20 yil “ ” dagi №
bank kartalari vositasida korxona/tashkilot
ishchi-xodimlariga ish xaqi tarqatish bo‘yicha
ommaviy oferta shartnomasiga
3- ilova*

filialining “ ” tashkiloti
(filial nomi) (tashkilot/korxona nomi)
xodimlari uchun emissiya qilingan bank kartalari ro‘yxati

No	Bank kartasi rakami	Mijozning ism, familiyasi	Mijoz imzosi	Sana

Jami: _____ (_____) dona UZKART/_____ plastik kartochkalari;
(so‘z bilan)

emissiya qilinib, “ ” tashkilotining ishonchli vakiliga
berildi.
(tashkilot/korxona nomi)

Plastik kartochkalar bo‘limi boshlig‘i

_____ (FIO)

“(tashkilot nomi) ” tashkilotining
bo‘limi xodimi

_____ (FIO)

20 ___ yil “___” _____ dagi № _____
bank kartalari vositasida korxona/tashkilot
ishchi-xodimlariga ish haqi tarqatish bo‘yicha
ommaviy oferta shartnomasiga
4- ilova

Bank kartalari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha bank amaliyotlarini bajarilishi bo‘yicha
I S H O N C H N O M A

Berilgan sana “___” “_____” 20 ___ y

(korxona,tashkilot nomi)

(korxona, tashkilot yuridik manzili)

x/v _____

xizmat ko‘rsatuvchi bank _____ MFO _____

STIR _____ OKONX _____

Ishonchnama berilgan _____
(lavozim, F.I.O.)

Pasport seriyasi va raqami “___” “_____” Berilgan sana “___” “_____” 20 ___ y

Kim tomondan berilgan _____

Amal qilish muddati “_____” “_____” 20 ___ y

Tel.raqamlari: uyali aloqa (+998 __) _____ ishxona _____

